

Qadamboy Jayronov tog'li Chosh qishlog'ida yashaydi. Bu yerlarda olti oy yoz bo'lsa, olti oy qish. Quyosh tog'ning ortiga yonboshlaganda choshliklar ham to'shakka kiradi, ertalab tog'ning ortidan mo'ralaganda irg'ib turishadi. Choshda na telefon, na xolodilnik, na televizor, na radio bor. Shuning uchun qishloqdagilar ba'zan tog'ning tepasiga chiqib, shahar tomonga qarab o'tirishadi. Xo'jalik markazi tuman yo viloyatdan biror gap yetib kelsa, og'izdan-og'izga o'tib butun qishloqqa tarqaladi. Yaqinda ana shunday bir gap tarqaldi. Uni birinchi bo'lib Qadamboyning tog'asi Eshqobil aka eshitdi. U kuyovi Avliyoqulni ergashtirib, jiyanining uyiga ravona bo'lди.

Qadamboy maktabda muallim. Biologiyadan dars beradi. Yoz kelsa, tog'ma-tog' yurib, dorivor giyohlar teradi. Keyin savob bo'ladi deb qishloqdagilarga tarqatib chiqadi. Juda bekor qolsa, qiyshayib soy bo'yiga tushadi. Majnuntolning mayda, tekis novdalarini kesib olib, savat to'qiydi. Besh-o'nta bo'lganda mahalladagi xotin-xalaj kirib talab ketishadi. Tolsavatning daromadi ham bir kamiga yetib turibdi.

Yozning chillasi. Qadamboy shundoqqina soy labida baqaterakning tagida o'tiribdi. Oldida bir dasta tolchiviq. "Bunisi qurtsavatga, bunisi qo'lsavatga", deb novdalarni saralay boshladi. Shu payt uzun-qisqa bo'lib, Eshqobil aka bilan Avliyoqul yetib kelishdi.

- Omin,topganingga baraka jiyan! - dedi tog'a, eski bir to'nkaga omonat cho'kib. Avliyoqul cho'nqayib fotihaga qo'shildi. Eshqobil aka yarqirab turgan savatlarni bir-bir qo'lga olib ko'rdi, barkashdan kattaroq bittasini tanladi.

- Mana shunisini yangangga bera qol,- dedi savatni salmoqlab, - non yopsa, doim dasturxonni kuydirib yuboradi.

Qadamboy hazillashdi:

- Haqi bitta tovuq bo'ladi, tog'a.

Eshqobil aka, qanday gap boshlasam ekan, deb yo'l axtarib o'tirgan edi, darrov yo'li topildi.

- Tog'ab'B"xo'r, jiyan - zo'r ekan-da, a! Tovuqning yoniga xo'rozini qo'shib beraman, jiyan. Endi senga ham bir maslahatli gap bor. Xo'p, de.

Qadamboy bir to'p tolchiviqni g'ijimlab boshini ko'tardi.

- Nima gap ekan?

- Shirkat raisi ishdan bo'shabdi. Akalari uni ko'tar-ko'tar qilib,kattaroq ishga olib ketganmish. Biz, mana, pochchang bilan maslahat qildik. Agar xo'p desang, ko'plashib seni raislikka ko'tarmoqchimiz. Bizning urug'dan ham chiqsin-da! Qachongacha Qizilqishloqdan chiqaveradi? Nima deding, jiyan?

Qadamboy miriqib kului:

- Ajoyib tog'amsiz-da! Shuncha yoshga borsangiz ham xayolparastligingiz qolmabdi. Qani, mana bu kobinetga kiring, Qadamboy, deb, menga birovning ko'zi uchib turibdimi? Rais bo'laman, deb o'zini o'qqa-cho'qqa uringanlar bor, bilasiz. Yarashmagan gapni qo'ying, tog'a!

- Puldi biz ham topamiz, - dedi Eshqobil aka,- ikki gektar yerga zig'ir ekip qo'yibman. Boshqolab turibdi. Xudo xohlasa, bir milyonga sotaman.

Qadamboyning shumligi tutdi. Iljayib tog'asiga qo'l cho'zdi:

- Yana ozgina qo'shing, tog'a. Yetmayroq turibdi...

- Yetmasa, yetkazamiz. Mana, pochchang yonimda! - Tog'a kuyoviga qaradi. - Hey sen ham so'yla-da, Avliyoqul! Yo'lda ne deb javrab kelib eding?

Kuyov tomoq qirib, tilga kirdi:

- Bizda ham ikki ho'kizcha bor. Ikkovi o'lganda yarim tonnaga yaqin yuk qilib qolar-ov. Sen uchun sotaman. Rais bo'lib ketsang, menga biror permer xo'jaligi ochib berarsan, Qadamboy.

Qadamboy ko'rdiki, tog'alari astoydil bel bog'lagen. U oldidagi xas-xashakni quchoqlab, daryoga olib borib tashladi. Qo'llarini qoqib, iziga qaytdi.

- E, boshimni og'ritmanglar! - dedi xafa bo'lib,- yovg'on oshim - g'alvasiz boshim. Raislik osonmi? Bugun borsan, ertaga yo'qsan. Osmondag'i oyga qo'l cho'zib nima qilasiz, tog'a? Bekorga kuyganlaring qoladi.

Eshqobil aka oyog'ini tirab turib oldi:

- Kuysak, biz kuyamiz, jiyan. Zato, bizning urug'dan ham rais chiqqan, deb kerilib yuramiz. Xudo, ol qulim, deb rais bo'lsang, qishloqqa svet obkelarding, bolalarga tuzukroq maktab solib berardding.Biz ham odamga o'xshab, dilvuzur ko'rib, radio eshitardik. Qachongacha dunyo bexabar bo'lib yotamiz? Xo'p, de, jiyan!

Qadamboy uh tortdi:

B'T"Men ko'ngilchanman. Odamlarga qattiq gapirolmayman.

- O'rganib ketasan. Yakkaxo'jain bo'lganidan keyin ortingdan kelsa - tepasan, oldingdan kelsa - tishlaysan.

- Tishlaysiz-a, tishlaysiz. Hozir odamlarning ko'zi ochilgan.Tishingizni qoqib qo'lingizga berar.

- Bekor aytibsani. Bir qo'lingda non ushlab turib, qancha urishsang ham chidaydi odamlar. Aytganiningni qiladi. Gap tamom. Seni rais qilamiz. Ma'lumoting yetarli, kallang ishlaydi. Qancha yil zavuch bo'lib maktabni boshqarding...Yo'q, dema, jiyan!

Qadamboy irg'ib turdi.

- Yo'q, yo'q, yo'q! - dedi boshini sarak-sarak qilib. - Tog'a, agar zo'rlay bersangiz, hozir hov ana yerga chiqib, o'zimni soyga tashlayman!

B'T"Esingni yedingmi, jiyan? Oldin bir kun bo'lsa-da, rais bo'lib, ayshingni sur, keyin suvgaga tashlaysanmi, o'tga tashlaysanmi, o'zing bilasan.

Qadamboyliga aslida mayda novda kerak edi. U lip etib tomga chiqdi. Undan terakka yopishdi. Oqterakdan bir sakrab majnuntolga o'taman, deganda o'rta shoxga maymunday osilib qoldi. Eshqobil aka, rostdan ham bu tentak o'zini suvgaga tashlamoqchimi, deb cho'chidi.

- Hov, ahmoq bo'lma, jiyan, - dedi tepaga qarab, - o'lib ketsang, besh bolangni kim boqadi?

Shu payt Qadamboyning oshnasi Narzi qora kelib qoldi.

- Tog'a, bizning mo'kkichi jo'ramiz ko'rinnmaydimi? B'T"dedi. Eshqobil aka tol shoxiga ishora qildi:

- Jo'rang, ho'v ana, tepada osilib yotibdi. O'zimni suvgaga tashlab o'laman, deydi.

- Nima bo'ldi? Nega bugun o'lgisi kelib qoldi ekan?

Tog'a o'zini oqlagan bo'ldi:

- Biz ko'plashib uni rais qilmoqchi edik. Men zig'irimni sotib, pulini bermoqchi bo'ldim. Mana, pochhasi qo'shaloq ho'kizni

This is not registered version of TotalDocConverter
sotin qurilishga bo'ssa, qo'sha bo'lmayman, deb tashriflik qilayapti.

Narzi qora hamon tol shoxida oyoqlarini likillatib turgan Qadamboyga qarab baqirdi:

- Ho've mo'kki polvon, qo'rqlmay pastga tushaver. Hozir tumandan xabar keldi. Oqmachitlik Boybo'riev rais bo'libdi.
Qadamboying tog'asi zig'irini sotib, pochchasi ho'kizlarini pullab kelsin, deb kutgani vaqtłari yo'q ekan. Sening peshonangga
yozilgani mo'kki bilan tolsavat! Bu yoqqa tush, senga maslahat bor...

Qadamboy asta-asta daraxtdan tusha boshladi. Eshqobil aka qulochini terib, ikki soniga urdi:

- Ha, enag'ar Boybo'riev! Tag'in ilib ketding-a ko'pkarini! Yangi raisning tog'asi, mana, biz bo'lamiz, deb "Volga"ning darchasidan
tirsakni chiqarib yurmoqchiydik, nasib etmadi-ya!..